

## **Bitiruvchilarga oq yo'**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida 2019 - yil 2 -iyul kuni "Gidromelioratsiya" fakultetining 2018/2019 o'quv yili bitiruvchilariga tantanali diplom taqdim etish tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirga institutimiz rektori O'ktam Pardayevich Umurzakov, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor Shavozov Qodirjon Ochilovich va fakultet dekanlari, professor-o'qituvchilari hamda ota-onalar tashrif buyurishdi. Institut rektori tadbirni kirish so'zi bilan ochib berdi. Shundan so'ng fakultet dekani Fatxulloyev Alisher Mirzatilloyevich bitiruvchilarni tabriklab, institut rektorining 2019 - yil 2 - iyuldagи 815/t diplom berish to'g'risidagi buyrug'ini o'qib eshittirdi va bitiruvchilarga institut rektori tomonidan diplom taqdim etildi. 345 nafar bitiruvchilardan 14 nafari imtiyozli diplomga ega bo'lishdi. Institut rahbariyati bitiruvchilarni, ularning ota-onalarini samimiy tabriklashdi va diplomlarni o'z egalariga tantanali topshirishdi. Bitiruvchilar va ularning ota-onalari so'zga chiqib institut rahbariyatiga minnatdorchilik bildirishdi.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**